TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi
2-bosqich Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi talabalariga 3-semestr uchun
« Tarbiyaviy-korreksion faoliyat » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

№	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi).	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1- rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi).	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).	4-QISM qism “MURAKKAB SAVOLLAR 2” debnomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).	5-qism QIYIN SAVOLLAR” debnomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).
1	“Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi” fanining obyekti va predmetini izohlang. (T.I.: ta’lim-tarbiya jarayoni, shaxs rivojlanishi, tashxis, korreksion faoliyat)	Pedagogik diagnostika tushunchasining mohiyatini yoriting. (T.I.: aniqlash, tashxis qo‘yish, baholash, diagnostikos)	Fanning asosiy maqsadi va vazifalarini ochib bering.	Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi fanining pedagogika fanlari tizimidagi o‘rni hamda psixologiya, sotsiologiya, akmeologiya fanlari bilan integratsiyasini tahlil qiling.	“Tarbiyaviy ishlar samaradorligi o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, shaxs rivojlanishidagi natijalar bilan o‘lchanadi” degan fikrni asoslang.
1	Fanning o‘quv fani sifatida shakllanishiga ta’sir etgan omillarni sanab bering. (T.I.: kompetensiyaviy yondashuv, globallashuv, raqamli transformatsiya)	“Diagnostika” va “korreksiya” atamalarining kelib chiqishi va ma’nosini tushuntiring. (T.I.: diagnostikos, correctio, tuzatish, tashxis)	Fanning asosiy tushunchalari (pedagogik tashxis, monitoring, baholash, prognozlash, korreksiya)ning o‘zaro farqini tushuntiring.	Pedagogik diagnostika rivojlanishining tarixiy bosqichlarini (kuzatishga asoslangan diagnostikadan raqamli diagnostikagacha) tavsiflang.	Sun’iy intellekt va raqamli monitoring platformalari tarbiya diagnostikasining kelajagini qanday o‘zgartirishi mumkinligi haqida fikringizni asoslang.
2	Pedagogik diagnostikaning asosiy xususiyatlarini izohlang. (T.I.: ilmiylik, obyektivlik, tizimlilik, dinamiklik, prognozlash)	K. Ingenkamp pedagogik diagnostikaga qanday ta’rif bergan? Fikringizni bayon eting. (T.I.: pedagogik qarorlar, vaziyatni aniqlash, dinamikani baholash, rejalashtirish)	Pedagogik diagnostikaning axborot, tahliliy, baholash, prognozlash, korreksion va motivatsion funksiyalarini tavsiflang.	L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi diagnostika va korreksiya metodologiyasi uchun qanday ahamiyat kasb etadi?	Pedagogik diagnostikada subyektiv taassurot va ilmiy xulosa o‘rtasidagi farqni asoslab, obyektivlikni ta’minlash yo‘llarini taklif eting.
2	Diagnostik jarayonning tarkibiy qismlarini sanab bering. (T.I.: maqsad, obyekt, subyekt, mezon, metod, xulosa)	Korreksiya, tarbiyaviy ta’sir va jazolash tushunchalarini farqlang. (T.I.: rivojlantirishga yo‘naltirilgan yordam, majburlash, qadr-qimmat)	Diagnostika va korreksiya yagona pedagogik sikl sifatida qanday ketma-ketlikda amalga oshirilishini bosqichlari bilan yozing.	B. Skinner (bixevioristik) va A. Bandura (ijtimoiy o‘rganish) nazariyalarining tarbiyaviy korreksiyadagi amaliy ahamiyatini taqqoslang.	“Diagnostikasiz korreksiya ko‘r-ko‘rona harakat, korreksiyasiz diagnostika esa amaliy ahamiyatsiz ma’lumot” degan fikrga munosabatingizni bildiring.
3	Rahmdillik va xayr-sahovat tushunchalarining pedagogik mohiyatini izohlang. (T.I.: hamdardlik, beg‘araz yordam, insonparvarlik, ijtimoiy pedagogika)	“Avesto”da inson kamolotining uch asosiy mezoni haqida ma’lumot bering. (T.I.: ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal)	O‘zbekistonda xayr-sahovat an’analarining rivojlanish bosqichlarini tavsiflang.	Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning individual yondashuvga oid g‘oyalari zamonaviy pedagogik diagnostika bilan qanday uyg‘unlashishini izohlang.	Mahalla institutining ijtimoiy-pedagogik qadriyat sifatidagi o‘rni bugungi tarbiyaviy diagnostika va korreksiyada qanday imkoniyat yaratishini asoslang.
3	Vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilgan ijtimoiy yordam turlarini sanab bering. (T.I.: yetimlar tarbiyasi, bepul ta’lim, bemorlarni davolash, musofirlarni joylashtirish)	Jadid ma’rifatparvarlarining (Behbudiy, Avloniy) ijtimoiy-pedagogik faoliyati haqida yoriting. (T.I.: usuli jadid, bepul ta’lim, qizlar maktablari, xayriya)	Ijtimoiy pedagogning asosiy faoliyat yo‘nalishlari hamda uning diagnost, maslahatchi va mediator sifatidagi vazifalarini izohlang.	Beruniyning kuzatish, tajriba va tahlilga asoslangan ilmiy metodologiyasi pedagogik diagnostikaning obyektivlik tamoyili bilan qanday bog‘liqligini tahlil qiling.	Ikkinchi jahon urushi yillarida yetim bolalarni o‘z bag‘riga olgan o‘zbek oilalari tajribasidan bugungi ijtimoiy-pedagogik faoliyat uchun qanday xulosalar chiqarish mumkin?
4	Me’yor tushunchasi va uning turlarini izohlang. (T.I.: pedagogik, psixologik, ijtimoiy, huquqiy, axloqiy me’yor)	O‘smirlik davrining yosh xususiyatlarini yoriting. (T.I.: 11–15 yosh, emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, tengdoshlar ta’siri)	Me’yordan og‘ish (deviatsiya) tushunchasi va uning namoyon bo‘lish belgilarini tavsiflang.	L.S. Vigotskiy, J. Piaje va E. Eriksonning yosh davrlariga oid qarashlarini pedagogik diagnostika nuqtai nazaridan taqqoslang.	“Har qanday og‘ish salbiy emas” degan fikrni misollar bilan asoslang.
4	Pedagogik me’yorning mazmunini izohlang. (T.I.: bilim, ko‘nikma, kompetensiya, xulq-atvor ko‘rsatkichlari)	Psixologik me’yorning asosiy ko‘rsatkichlarini yoriting. (T.I.: emotsional barqarorlik, irodaviy sifatlar, intellektual rivojlanish)	Maktab amaliyotida me’yordan og‘ishning ogohlantiruvchi indikatorlarini sanab bering va ularni erta aniqlash ahamiyatini tushuntiring.	D.B. Elkonin va E. Erikson nazariyalariga ko‘ra o‘smirlik davrining asosiy ehtiyoji hamda identifikatsiya inqirozi deviant xulq shakllanishiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiling.	Me’yordan og‘ishga “bolaning aybi” emas, balki “pedagogik yordam talab qiluvchi rivojlanish holati” sifatida yondashishning afzalliklarini asoslang.
5	Pedagogik korreksiyaning mohiyati va maqsadini izohlang. (T.I.: correctio, tuzatish, salbiy og‘ishlarni bartaraf etish, ijobiy xulq-atvor)	Korreksiyaning umumpedagogik tamoyillarini sanab bering. (T.I.: ilmiylik, individuallashtirish, tizimlilik, faollik, insonparvarlik)	Individuallashtirish va tizimlilik tamoyillarining mazmunini misollar bilan izohlang.	Umumta’lim maktablarida tarbiyaviy-korreksion faoliyatni tashkil etishning dolzarbligini ko‘rsatuvchi tendensiyalarni tahlil qiling.	Faollik tamoyili buzilib, o‘quvchi passiv obyektga aylanganda korreksiya natijasiga qanday ta’sir qilishini asoslang.
5	Pedagogik korreksiyaning asosiy vazifalarini ayting. (T.I.: salbiy omillarni kamaytirish, kommunikativ kompetensiya, o‘z-o‘zini boshqarish)	Insonparvarlik tamoyilining pedagogik korreksiyadagi o‘rnini yoriting. (T.I.: qadr-qimmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash, jazolamaslik)	Korreksiyaning maxsus tamoyillari (inklyuzivlik, differensial yondashuv, ijobiy motivatsiya, oila–maktab–mahalla hamkorligi)ning ahamiyatini izohlang.	Korreksion faoliyatda “bolaning shaxsini emas, muammoning sabablarini bartaraf etish” yondashuvining mohiyatini tahlil qiling.	Umumpedagogik va maxsus tamoyillar o‘zaro qanday bog‘lanishini, birining buzilishi ikkinchisiga qanday ta’sir qilishini asoslang.
6	Korreksiyada qo‘llaniladigan asosiy metodlarni sanab bering. (T.I.: suhbat, kuzatish, rag‘batlantirish, o‘yin texnologiyalari, trening)	Individual pedagogik korreksiya tushunchasini va uni qo‘llash holatlarini yoriting. (T.I.: o‘qishda qiyinchilik, ijtimoiy moslashuv sustligi, emotsional muammo)	Individual korreksiyaning bosqichlarini ketma-ketlikda tushuntiring.	Guruhli korreksiya metodlari (trening, rolli o‘yinlar, keys-stadi, aqliy hujum, hamkorlikda o‘qitish)ning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qiling.	Qaysi holatlarda individual, qaysi holatlarda guruhli korreksiya samaraliroq bo‘lishini asoslab bering.
6	Rag‘batlantirish metodining mohiyatini yoriting. (T.I.: maqtov, tashakkurnoma, jamoa oldida e’tirof, ichki motivatsiya)	Zamonaviy korreksion texnologiyalar haqida ma’lumot bering. (T.I.: art-terapiya, ertak terapiyasi, biblioterapiya, o‘yin terapiyasi)	Art-terapiya, musiqa terapiyasi va ertak terapiyasining qaysi yosh va qaysi muammolarda qo‘llanilishini taqqoslang.	Individual korreksiyaning afzalliklari va cheklovlarini (vaqt, pedagogik mahorat) guruhli shakl bilan solishtirib tahlil qiling.	Sinf rahbari sifatida 8-sinfdagi tajovuzkor o‘quvchi uchun korreksion metodlar majmuasini tanlang va tanlovingizni asoslang.
7	Neyrolingvistik dasturlashtirish (NLP) tushunchasini izohlang. (T.I.: neyro, lingvistik, dasturlash, muloqot, shaxsiy rivojlanish)	NLPda raport (rapport) tushunchasi nimani anglatadi? (T.I.: ishonchli aloqa, moslashish, muloqot, hamohanglik)	NLPning asosiy tamoyillarini sanab bering va ularning pedagogik korreksiyadagi ahamiyatini tushuntiring.	Idrok kanallari (vizual, auditiv, kinestetik) bo‘yicha o‘quvchilarni farqlash diagnostikada qanday qo‘llanilishini izohlang.	NLP elementlaridan pedagogik amaliyotda foydalanishning etik chegaralari haqida fikringizni bildiring.
7	“Qayta ramkalash” (reframing) usulining mohiyatini yoriting. (T.I.: vaziyatga yangicha qarash, salbiy fikrni ijobiyga o‘zgartirish, ma’no)	Verbal va noverbal muloqotning NLPdagi o‘rnini yoriting. (T.I.: nutq, mimika, ovoz ohangi, tana tili)	Deviant xulqli o‘smir bilan muloqotda NLP usullaridan (raport, qayta ramkalash, ijobiy maqsad qo‘yish) foydalanish algoritmini yozing.	“Xarita hudud emas” (har kim voqelikni o‘z idrok xaritasi orqali qabul qiladi) g‘oyasi o‘quvchi xulqini tushunishda qanday ahamiyatga ega?	NLPning ilmiy asoslanganligi borasidagi tanqidiy fikrlarni hisobga olib, uni pedagogik korreksiyada qanday doirada qo‘llash maqsadga muvofiqligini asoslang.
8	Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi tushunchasini izohlang. (T.I.: samaradorlik, tizimli jarayon, bosqichma-bosqich, individual dastur)	Texnologiyaning besh fazasini sanab bering. (T.I.: diagnostik, loyihalash, amalga oshirish, monitoring, refleksiya)	Diagnostik fazada qo‘llaniladigan metodlar va ularning vazifasini tushuntiring.	Texnologiya algoritmining (diagnostika → muammoni aniqlash → maqsad → individual dastur → ta’sir → monitoring → refleksiya → baholash → takomillashtirish) mantiqiy izchilligini tahlil qiling.	Samaradorlikni faqat o‘quv natijalari bilan emas, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlik bilan ham o‘lchash zarurligini asoslang.
8	Loyihalash fazasida individual dastur tarkibiga nimalar kiradi? (T.I.: maqsad, vazifalar, metodlar, monitoring mezonlari, kutilayotgan natija)	Monitoring fazasida nimalar baholanadi? (T.I.: motivatsiya, xulq-atvor, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv, emotsional holat)	Refleksiya va baholash fazasining mohiyatini yoriting hamda dastlabki va yakuniy diagnostika natijalarini solishtirish tartibini tushuntiring.	Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi texnologiyaning loyihalash va amalga oshirish fazalarida qanday aks etishini tahlil qiling.	Texnologiya fazalaridan biri (masalan, monitoring) tushib qolgan hollarda korreksion jarayon sifatiga qanday xavf tug‘ilishini misol bilan asoslang.
9	Pedagogik diagnostikada qo‘llaniladigan asosiy metodlarni sanab bering. (T.I.: kuzatish, suhbat, anketa, test, sotsiometriya, portfolio)	Sotsiometriya metodining mohiyatini yoriting. (T.I.: jamoadagi o‘rin, tanlov, tengdoshlar munosabati, lider va chetlangan o‘quvchi)	Ta’lim muassasasida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatini tashkil etish bosqichlarini tushuntiring.	Pedagogik korreksiyani samarali tashkil etishning shart-sharoitlarini (kadrlar, muhit, hamkorlik, monitoring) tahlil qiling.	O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini aniqlash uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimini taklif eting hamda asoslang.
9	O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi tushunchasini izohlang. (T.I.: tashabbus, jamoaviy ishlarda ishtirok, mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi)	Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga olib keluvchi omillarni yoriting. (T.I.: oilaviy muhit, nazoratning sustligi, tengdoshlar ta’siri, internet)	Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda maktab, oila va mahalla hamkorligi mexanizmini tushuntiring.	Huquqbuzar o‘smirlar bilan ishlashda “jazolash” emas, “qayta ijtimoiylashtirish” yondashuvining mohiyatini tahlil qiling.	Maktabda huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha kompleks profilaktik dastur loyihasini (maqsad, vazifa, tadbir, kutilayotgan natija) tuzing.
10	Deviant xulq-atvor tushunchasini izohlang. (T.I.: deviatio, me’yordan chetga chiqish, axloqiy va ijtimoiy me’yorlar)	Deviant xulq-atvorning asosiy turlarini sanab bering. (T.I.: agressiv, addiktiv, delinkvent, autodestruktiv, viktim, suitsidal)	Deviant va delinkvent xulq-atvor o‘rtasidagi farqni tushuntiring.	E. Dyurkgeymning anomiya nazariyasi va R. Mertonning strukturaviy konsepsiyasini taqqoslang va pedagogik ahamiyatini baholang.	Z. Freyd, B. Skinner va A. Bandura nazariyalari asosida bitta deviant xulq holatini turlicha izohlang.
10	Addiktiv xulq-atvorning zamonaviy ko‘rinishlarini yoriting. (T.I.: internet va geymingga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik, tamaki, alkogol)	O‘smirlarda deviant xulq sabablari guruhlarini izohlang. (T.I.: oilaviy, pedagogik, psixologik, ijtimoiy sabablar)	Deviant xulqning shakllanish bosqichlarini (xavf omillarining yuzaga kelishidan huquqbuzarlikka o‘tish xavfigacha) tavsiflang.	Agressiv va viktim xulq-atvorli o‘quvchilar bilan ishlashda korreksion yondashuvlarning farqini tahlil qiling.	Suitsidal xavf belgilari aniqlanganda pedagogning kasbiy chegarasi va harakat tartibini (psixolog, ota-ona, mutaxassis bilan hamkorlik) asoslab bering.

11	“Pedagog–ta’lim oluvchi” munosabatlarining mohiyatini izohlang. (T.I.: hurmat, ishonch, talabchanlik, hamkorlik)	Pedagogik masofa tushunchasini yoriting. (T.I.: shaxsiy chegara, yaqinlik, rasmiylik, hurmat)	Pedagogik munosabatlarda hurmat, ishonch va talabchanlik uyg‘unligini ta’minlash qoidalarini tushuntiring.	Ta’lim oluvchi sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishning huquqiy va axloqiy asoslarini tahlil qiling.	Pedagogning avtoritar, demokratik va liberal munosabat uslublarini korreksion natijaga ta’siri bo‘yicha taqqoslab asoslang.
11	Nizoli munosabatlarning kelib chiqish sabablarini sanab bering. (T.I.: tushunmovchilik, adolatsizlik, manfaatlar to‘qnashuvi, muloqot to’siqlari)	Pedagogik takt nima? (T.I.: me’yor hissi, vaziyatni his qilish, e’tiborlilik, kamsitmaslik)	Nizoli vaziyatning oldini olish bo’yicha pedagogning amaliy harakatlar ketma-ketligini yozing.	Navoiyning majburlash emas, ezgu namuna, mehribonlik va adolatga tayanish haqidagi g’oyasi zamonaviy pedagog–o’quvchi munosabatlarida qanday qo’llanilishini izohlang.	O‘quvchi ko‘pchilik oldida tanqid qilingan vaziyatni tahlil qiling: qanday psixologik-pedagogik xatolar yuz bergan va ularni qanday tuzatish mumkin?
12	Pedagogik o‘lchash tushunchasini izohlang. (T.I.: o‘lchov birligi, ko‘rsatkich, miqdoriy ifoda, mezon)	Shkala nima va pedagogik diagnostikada qanday shkalalar qo‘llaniladi? (T.I.: nominal, tartib, intervallar, nisbatlar shkalasi)	Nominal shkala va tartibni aniqlovchi (ordinal) shkalaning farqini misollar bilan tushuntiring.	Intervallar shkalasining ordinal shkaladan ustunligi va cheklovlarini tahlil qiling.	O‘quvchining tarbiyalanganlik darajasini o’lchash uchun mezonlar va baholash shkalasini ishlab chiqing hamda asoslang.
12	Baholash shkalasi tushunchasini yoriting. (T.I.: ball, daraja, mezon, indikator)	Pedagogik diagnostikani o‘tkazish yo‘nalishlarini sanab bering. (T.I.: bilim, ko’nikma, kompetensiya, xulq-atvor, ijtimoiy faollik)	Sifat ko‘rsatkichlarini (tarbiyalanganlik, axloqiy sifatlar) miqdoriy shkalaga o‘tkazishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tushuntiring.	Reyting, ball va darajali (yuqori–o‘rta–past) baholash tizimlarini solishtirib, tarbiyaviy diagnostika uchun qaysi biri maqbulligini tahlil qiling.	Ma’lumotlarni qayta ishlashda (o‘rta arifmetik, ulush, dinamika) noto‘g‘ri statistik xulosa chiqarilishi mumkin bo’lgan holatlarga misollar keltiring va ularning oldini olish yo‘llarini asoslang.
13	Pedagogik nazorat tushunchasi va uning vazifalarini izohlang. (T.I.: tashxis, nazorat, tuzatish, natija)	Dastlabki (kirish) test metodining mohiyatini yoriting. (T.I.: boshlang‘ich bilim, o‘quv jarayoni boshi, tashxis, rejalashtirish)	Test metodining afzalliklari va kamchiliklarini tushuntiring.	Testning ishonchliligi (reliability) va validligi tushunchalarini tahlil qiling.	Shaxsiy psixometrik testlardan maktab amaliyotida foydalanishning etik talablari va cheklovlarini asoslang.
13	Test topshiriqlarining asosiy turlarini sanab bering. (T.I.: yopiq, ochiq, moslashtirish, ketma-ketlikni aniqlash)	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik tashxis qilishning mazmunini yoriting. (T.I.: bilim darajasi, rivojlanish dinamikasi, tarbiyalanganlik, ijtimoiy moslashuv)	Sifatli test topshirig‘iga qo‘yiladigan talablarni (qiyinlik darajasi, ajrata olish qobiliyati, aniq mazmun) tushuntiring.	Me’yoriy (normativ) va mezoniy yo‘naltirilgan testlar o‘rtasidagi farqni tahlil qiling.	Bir martalik test natijasi asosida o‘quvchi haqida yakuniy xulosa chiqarishning xavfli jihatlarini asoslang va muqobil yondashuv taklif eting.
14	Pedagogning kasbiy imidji tushunchasini izohlang. (T.I.: kasbiy obro‘, tashqi ko‘rinish, nutq madaniyati, shaxsiy namuna)	Pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlarini sanab bering. (T.I.: nutq madaniyati, muloqot madaniyati, axloqiy madaniyat, tashqi ko‘rinish)	Ijtimoiy tarmoqlarda pedagogning xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablarni tushuntiring.	Raqamli kommunikatsiyada axborot mas’uliyati va maxfiylik tamoyillarining ahamiyatini tahlil qiling.	“Pedagog ish vaqtidan tashqarida ham o‘quvchilar uchun namuna” degan fikrni A. Bandura nazariyasi asosida asoslang.
14	Raqamli etika tushunchasini yoriting. (T.I.: onlayn xulq, shaxsga doir ma’lumotlar, mas’uliyat, hurmat)	Pedagogning kasbiy nutq madaniyati talablari qaysilar? (T.I.: ravonlik, aniqlik, ohang, kamsitmaslik)	O‘quvchilar haqidagi diagnostik ma’lumotlarni raqamli platformalarda saqlash va tarqatishda amal qilinadigan maxfiylik qoidalarini yozing.	Sun’iy intellekt va elektron diagnostika vositalaridan foydalanishda pedagog etikasi bilan bog‘liq xavf va imkoniyatlarni taqqoslang.	O‘quvchi surati yoki natijalari ijtimoiy tarmoqqa ruxsatsiz joylashtirilgan vaziyatni tahlil qiling va pedagogning to‘g‘ri harakat tartibini asoslang.
15	Pedagogik baholash tushunchasini izohlang. (T.I.: mezon, natijani tahlil qilish, xulosa, o‘lchov)	Baholash turlarini sanab bering. (T.I.: kirish, joriy, oraliq, yakuniy nazorat)	O‘quv jarayonini tashxis etish tamoyillarini (obyektivlik, tizimlilik, ochiqlik, individuallik) tushuntiring.	Kompetensiyaviy yondashuvda baholashning an’anaviy baholashdan farqini tahlil qiling.	Baholash obyektivligini ta’minlashda rubrikalar (mezonlar jadvali)ning o‘rnini asoslang.
15	Xolisona baholash nimani anglatadi? (T.I.: adolat, mezonga tayanish, shaxsiy munosabatdan xoli, ochiqlik)	Baholashdagi keng tarqalgan xatolarni yoriting. (T.I.: “galo” effekti, yumshoqlik yoki qattiqqo‘llik, markaziy tendensiya, kontrast)	Formativ (shakllantiruvchi) va summativ (yakuniy) baholashning vazifalari va farqini tushuntiring.	O‘quv jarayonini tashkil etishning umumiy ko‘rsatkichlari (davomat, o’zlashtirish, faollik, tarbiyalanganlik) qanday tahlil qilinishini algoritm sifatida tavsiflang.	Baho jazolash vositasiga aylanib qolishining pedagogik oqibatlarini tahlil qiling va baholash etikasi nuqtai nazaridan yechim taklif eting.